

SHARQ ALLOMALARINING ASARLARI ORQALI TARIXIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Adxamjon Qosimov.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida assistenti
Elektron pochta: adhamjonqosimov1994@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada o'quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan fikr va mulohazalar berilgan, o'quvchi yoshlarning ta'lim va tarbiya jarayonida yoshlarda tarixiy tafakkurni shakllantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy meros, Renessans, tarixiy tafakkur, tarixiy ong, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, o'zbek xalq pedagogikasi tarixi.

ABSTRACT

This scientific article contains thoughts and opinions aimed at developing students' historical thinking, suggestions and recommendations on the formation of historical thinking in the process of education and upbringing of young students.

Key words: Spiritual heritage, Renaissance, historical thinking, historical consciousness, spiritual and moral values, history of Uzbek folk pedagogy.

KIRISH

Yurtimizning boy tarixi, moddiy va ma'naviy merosi va dunyo tamaddumiga beqiyos hissa qo'shgan, yuksak aql–zakovati bilan dunyoning ko'p qismini zabt etgan buyuk sarkarda va davlat arboblarning ona zaminimizda yetishib chiqqanligi bizga faxr va iftixor bag'ishlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish ham davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir»¹

Sharqning ulug' allomalari va mutafakkirlarining kashfiyotlari zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot poydevori. Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o'zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o'z-o'zidan yuz bermaydi. Buning uchun avvalo asriy an'analar, tegishli shart–sharoit, tafakkur maktabi, madaniy–ma'naviy muhit mavjud bo'lmog'i kerak.²

Sharq uyg'onish davri — Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan. Agar Yevropa Uyg'onish davrining natijalari

¹ Mirziyoyev Sh. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so'zi, 2016, 19-oktyabr.

² B. Daminov. Sharq allomalarining ilmiy merosi.. <https://www.bukhari.uz/?p=25483&lang=oz>

sifatida adabiyot va san'at asarlari, arxitektura durdonalari, tibbiyot va insonni anglash borasida yangi kashfiyotlar yuzaga kelgan bo'lsa, Sharq Uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyati, avvalo, matematika, astronomiya, fizika, kimyo, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlarning, shuningdek, tarix, falsafa va adabiyotning rivojlanishida namoyon bo'ladi.

Dunyo bo'yicha yoshlarda tarixiy tafakkurni shakllantirish strategiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan oliy ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilmoqda. Tarixiy tafakkurning ijtimoiy hayotni tartibga soluvchi kuch ekani, jamiyatda uni shakllantirish zarurligi juda qadim zamonlardayoq anglab yetilgan.

Tarixiy ong, tarixiy tafakkur haqidagi qarashlar uzoq o'tmishdan boshlab shakllanganligi barchaga ma'lumdir. Buyuk Sharq allomalarining o'z tarixiga oid dunyoga mashhur asarlar yaratganlar. Ulardan o'rganish, ulardan ta'lim jarayonida maqsadli foydalanish tarixiy tafakkurni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi.

O'zbek xalq pedagogikasi tarixida juda ko'p didaktik asarlar yaratilib, ularni chuqur o'rganish, ulardagi eng qimmatli fikrlarni aniqlash, saralash, ulardan bugungi kunda ijodiy foydalanish hamda hayotga keng tatbiqetish hozirgi kunning muhim vazifasidir. Ilm sohiblari ta'lim-tarbiya sohasiga oid qimmatli asarlar yaratgan, ularning har bir ta'limiy-asari bo'lib ma'naviy tarbiya, pedagogik fikrlar ilgari surilgan, ularning tarbiya haqidagi fikrlari chuqur, mantiqiy va asosli bayon etilgan. Asrlar osha bu fikrlar o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ular keng pedagogik jamoatchilik mulkiga aylanib, o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, uni hayotga tayyorlash ishida katta yordam berib kelmoqda. Bu pedagogik meros ayniqsa hozirgi ma'naviy qadriyatlar tiklanayotgan bir sharoitda alohida qimmatlidir.³

Madaniy meros hamda ma'rifiy-ma'naviy qadriyatlarni keng va har tomonlama o'rganish zarurligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ta'kidlanganidek, bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri xalqimizning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini tiklash, buyuk ajdodlarimiz, shoirlar, olimlar merosini xalq mulkiga aylantirish, e'tiqodini va xalqning o'z madaniyati, ma'naviyatining chuqur tarixiy ildizlari shakllanish bosqichlari va xususiyatlarini ochib berishdan iboratdir.

XULOSA

Ma'lumotlarni o'rganish natijasida shunday xulosaga keldim. Sharq allomalarining ilmiy merosi mavzusi bo'yicha yurtimiz olimlari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan, lekin Sharq allomalari asarlari orqali tarixiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari mavzusida tadqiqot ishlari olib borilmaganligi ma'lum bo'ldi. Shu sababli ushbu bo'limni ilmiy yondashgan holda o'rganishga qaror qilindi.

³ Axmedova M.E. "Pedagogika nazariyasi va tarixi" T: "Tafakkur bo'stoni", - 2001. 6b

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so'zi, 2016, 19-oktyabr.
2. Axmedova Malohat Ergashevna. "Pedagogika nazariyasi va tarixi"- T.: "Tafakkur bo'stoni", 2001 - B. 127.
3. Baxromjon Daminov. Sharq allomalarining ilmiy merosi. Bukhari uz. jurnali <https://www.bukhari.uz/?p=25483&lang=oz>
4. Adxamjon Qosimov. "Amir Temurning Gruziyaga yurishining sabablari sharq manbalari misolida." Educational Research in Universal Sciences. 2023 May. P.782-785.
5. Adxamjon Qosimov. "Amir Temur yurishlari arafasida Gruziyadagi ijtimoiy-siyosiy hayot" Educational Research in Universal Sciences. November, 2023. P.79-82.